IJTIMOIY FANLARNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDOGOGIK METODLARIDAN FOYDALANISH DOLZARBLIGI VA AHAMIYATI

A.Q.Saloxov
BuxMTI Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy fanlarni o‘qitishda ta’lim texnologiyalarinii qo‘llashning dolzarbligi, zamonaviy ta’lim sharoitida barcha ta’lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlarini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so’zlar: ta’lim texnologiyalari, zamonaviy ta’lim modellari, o’qitish jarayoni, ijtimoiy fan, video-dars

Аннотация. В данной стате показана актуалност применения образовательных технологий в преподавании обществознания, значимост исползования новых педагогических технологий в преподавании сотсиально-гуманитарных наук во всех образовательных учреждениях в современных условиях образования.

Ключевые слова: образовательные технологии, современные образовательные модели, учебный протсесс, сотсиально-гуманитарные науки, видеоурок

Annotation.This article shows the relevance of the use of educational technologies in teaching social studies, the importance of using new pedagogical technologies in teaching social sciences and humanities in all educational institutions in modern educational conditions.

Keywords: educational technologies, modern educational models, educational process, social sciences and humanities, video tutorial

Jahon ta’lim tajribasida iqtisodiyotning barcha jabhalaridagi kabi ijtimoiy sohalardagi tub o‘zgarishlar ham o‘zining ijobiy natijasini ko‘rsatmoqda, jumladan pedagog olimlar va tadqiqotchilar tomonidan ilmiy asoslangan ilg‘or ta’lim texnologiyalari va axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni ta’lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, me’yoriy hujjatlarni takomillashtirish, ta’lim samaradorligini yaxshilash bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Oliy ta’lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta’lim, texnika va

ishlab chiqarishning kreativ samarasini ta’minlash asosida ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, ta’limda innovatsion faoliyat, tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlariga iqtidorli yoshlarni jalb etishga oid ilmiy izlanishlarga e’tibor qaratilmoqda.

«Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni talablari asosida ma’naviy yetuk va jahon andozalari talablariga javob bera oladigan kadrlar tayyorlashda iqtidorli talabalarni mustaqil o‘rganishga, izlanishga va ishlashga yo‘naltirish va kelajakda ularni mustaqil qaror qabul qila oladigan shaxs qilib tayyorlash masalasi ta’lim tizimini isloh qilishning asosiy shartlaridan biridir. Bu talablar ta’lim muassasalarida tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning mustaqil fikrlashi, ijodkorlik qobiliyatlari yetarlicha rivojlangani va o‘z sohasi bo‘yicha muhim qarorlar qabul qilishi uchun o‘ta muhim ahamiyatga ega**.**

Hozirgi kunda ijtimoiy-gumanitar fanlarini o‘qitishning zamonaviy shakl, metod va texnologiyalarini qo‘llash, ta’lim jarayonida tayanch bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni doimiy nazorat qilib turish, talabalar qobiliyatiga qarab kasbiy yo‘naltirish ishlarini olib borish, o‘quvchilarni bilim olishlari uchun sharoitlarni yaratish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Pedagogik texnologiya – bu, ta’lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning o‘zaro ta’sirini inobatga olib, o‘zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo‘llashning tizimli metodidir.

Pedagogik texnologiya deganda, ta’lim funksiyasini amalga oshirishdagi san’at va mahorat tushunilib, u juda qulay usullar asosida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga asoslanadi. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayoni unumdorligini oshiradi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o‘quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkamlash, o‘zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar turkumiga kiruvchi darslarni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil

etishda turli metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. Chunki ijtimoiy-gumanitar fanlar turkumiga kiruvchi fanlar orqali talabalarda insoniy fazilatlarni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Talabalarni masofadan turib yangi bilimlarni egallashi, doimiy ravishda o‘z ustida ishlashi(mustaqil ta’lim) uchun tizim yaratish va uni yo‘lga qo‘yish maqsadida respublika ta’lim tizimi aralash ta’lim modellaridan foydalanilmoqda. Aralash ta’lim modellaridan foydalanish jahon miqyosida ham o‘z ahamiyatiga ega. Olib borilgan izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, Finlandiya, Hindiston, Avstraliya, AQSh, Kanada mamlakatlarida aralash ta’lim modellaridan foydalish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilgan.

Biz ularning ayrimlar haqida tushuncha berishga harakat qilamiz:

------ “Rotation”, “Flipped learning” modeli. Bunda o‘quv vaqti individual elektron ta’lim va o‘qituvchi bilan birgalikda auditoriyada tashkil etilgan ta’limga taqsimlanadi. Nazariy materiallar individual tarzda masofadan turib o‘qiladi va auditoriyada o‘qituvchi hamkorligida o‘zaro muzokaralar asosida material mustahkamlanadi.

------- “Online Lab” modeli. O’quv dasturi elektron ta’lim talablariga mos ravishda kompyuter texnikasi bilan ta’minlangan auditoriyalarda qoidaga asosan tashkil etiladi. Onlayn ta’lim o’qituvchi kuzatuvi asosida olib boriladi.

------- “Selfbrender” modeli. Model Amerikaning oliy ta‘lim muassasalari uchun an’anaviy hisoblanadi. Talabalar mustaqil tarzda asosiy ta’limga qo’shimcha ravishda kurslarni tanlaydi.

Yuqoridagi aralash ta’lim turlarini ijtimoiy-gumanitar fanlarida qo‘llash bo‘yicha fikr yuritadigan bo‘lsak, bu metodlar barcha yo‘nalish talabalarining ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishda samarali hisoblanadi.

Ijtimoiy fanlarini o‘qitishda “Flipped learning” modelini ko‘rib chiqamiz.

“Flipped learning” yoki buni “teskari ta’lim” aralash ta’limning bir shakli bo‘lib, talabalarning passiv harakatini yangi ko‘rinishga o‘tkazuvchi ta’lim konsepsiyasidir. Ushbu ta’limda ta’lim oluvchi mustaqil ta’lim sifatida video-darsni ko‘radi va materialni mustaqil o‘zlashtiradi, auditoriyada esa o‘qituvchi bilan hamkorlikda amaliy topshiriqlarni bajaradi. Bunda o‘qituvchi bir nechta video-

darslarni tayyorlaydi va ularni tarmoqqa yoki biror-bir tizimga joylashtiradi, ta’lim oluvchilar esa darsdan tashqari vaqtda o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan video-darsni ko‘radi va mavzuni o‘zlashtiradi. Bu esa video-darsni shoshilmasdan, takroran ko‘rish imkonini beradi. Agar uyda internet bilan ishlashga imkon bo‘lmasa, u holda ta’lim muassasalarida ushbu imkoniyat bilan ta’minlanadi. Dars davomida esa mavzu bo‘yicha yuzaga kelgan savollar, fikrlar haqida o‘qituvchi bilan muzokara qiladi. Olingan bilimni takomillashtirish uchun turli nazorat topshiriqlarini bajaradi.

Bu metodni Yengil sanoat yo‘nalishidagi ijtimoiy fanlarni o‘qitish misolida ko‘rib chiqamiz. Masalan, “Falsafa” fanini oladigan bo‘lsak, ushbu fanda falsafiy kategoriyalar va qonunlar turli metodlar orqali o‘rganiladi. Ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarini olib borishda bir qancha video-darslar tayyorlash mumkin. Ushbu video-darslarni o‘quvchilar o‘zlarining bo‘sh vaqtlaridan foydalanib o‘zlashtiradilar. Bugungi kunda texnika va texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bir paytda video-darslarni mobil ilovalardan, turli internet saytlaridan, messenjer tarmoqlaridan foydalanib ko‘rish mumkin. Dars jarayonida esa video-darsda o‘rgangan ma’lumotlari asosida falsafiy xulosalarga kelinadi. Mashg‘ulot davomida o‘qituvchi tomonidan ko‘rsatmalar berib boriladi. Bu metod dars davomida ko‘proq amaliy vazifalarni bajarish imkoniyatini oshiradi, o‘quvchilarni o‘z ustilarida ishlashlariga, berilgan vazifalarni mustaqil bajarishlariga imkon yaratadi.

Umuman olganda, zamonaviy ta’lim sharoitida professional ta’lim muassasalarida ijtimoiy fanlarni o‘qitishda zamonaviy ta’lim berish metodlaridan foydalanish orqali talabalarning mustaqil ravishda bilim olishga va amaliy faoliyatda qo‘llay olishiga hamda, malakali mutaxassislarni iste’molchilar talablariga ko‘ra tayyorlashga erishish mumkin.

Bizning fikrimizcha, oliy ta’lim muassasalari iqtidorli talabalari ijtimoiy fanlaridan sohaga oid bilim va ko‘nikmalarni chuqur o‘zlashtirishi, yuqori malakaga ega mutaxassis sifatida shakllanishi natijasida liderlik qobiliyatli shaxs bo‘lib yetishadi. Innovatsion salohiyat esa bugungi globallashuv sharoitida iqtisodiy

rivojlanishning asosiy manbai bo‘lib hisoblanadi va milliy boylikning eng muhim tarkibiy qismi sanaladi.

Hozirda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim va tarbiya jarayonini birgalikda olib borish davrida pedagogning bilim doirasi kengaygan sari, dunyoga, hayotga, jamiyat va davlatga nisbatan munosabati ham takomillashib boradi. Bu esa mutaxassining o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiribgina qolmay balki, bilimlarga boy tajribasini talabalarga o‘rgatishga bo‘lgan ishtiyoqini oshiradi. O‘qituvchi pedagog darsda hamda darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘zining ijodkorona mahoratini namoyon etsa, talabalar bu bilimlardan ozuqa olib o‘zining texnik ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sharifovna, T.Z., Bakhriniso, T. Modernization of higher education by solving integration problems.

2. Sharifovna, T.Z., Khamidovna, S.K., Bakhtiyorovna, T.B., & Fakhritdinovna, M.S. (2020). Improving Higher Education Through Integrated Learning, Features Of An Integrated Lesson. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(03), 2020.

3. Saloxov, A., & Qamariddinova, G. A. (2023). Buxoro jadidlarining ta’lim-tarbiyaga oid g ‘oyalarining nazariy-amaliy asoslari. Scholar, 1(28), 55-69.

4. Salokhov, A., & Qamariddinova, G. A. (2023). Socio-philosophical and pedagogical basis of the concept of tolerance. Educational research in universal sciences, 2(8), 200-213.